



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 6/2025



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOBILIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI

Sultanova A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*“Boshlangich ta’limda matematika va tabiiy fanlar” kafedrası
o’qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish omillari va shart-sharoitlari o'rganiladi. Pedagogik faoliyatda kasbiy mobillik o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini yangilash, professional rivojlanish va o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashish qobiliyatini anglatadi. Maqolada kasbiy mobillikni ta'minlovchi asosiy omillar, jumladan, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi metodik yondashuvlar va shaxsiy motivatsiya tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiyaga yunesko bergan ta'rif, jahon va o'zbekiston olimlarining bergan ta'riflari, bixeviorizm, pedagogik texnologiya xususiyatlari, reproduktiv ta'lim, xotira maktabi.

Annotation: In this study, the factors and conditions of the professional mobility of the future teachers are studied. In pedagogical activity, vocational mobility means the ability to update their knowledge and skills, to adapt to professional development and changing educational environment. The article will analyze the main factors that provide professionalism, including innovations in the education system, and methodological approaches in the training of teachers and personal motivation.

Keywords: Technology, education technology, pedagogical technology, features of the worldly scientists, features of bihyheviolism, pedagogical technology, reproductive education, memory school

Аннотация: В этом исследовании изучаются факторы и условия профессиональной мобильности будущих учителей. В области педагогической деятельности профессиональная мобильность означает способность обновлять свои знания и навыки, адаптироваться к профессиональному развитию и изменению образовательной среды. В статье будут анализироваться основные факторы, которые обеспечивают профессионализм, включая инновации в системе образования, и методологические подходы к обучению учителей и личной мотивации.

Ключевые слова: технологии, технологии образования, педагогические технологии, особенности мирских ученых, особенности бигигевиолизма, педагогические технологии, репродуктивное образование, школа памяти

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgaruvchan va dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, bu o'zgarishlar pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy mobillikni talab etadi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligi, ularning bilim va ko'nikmalarini yangilash, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon nafaqat o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki ta'lim sifatini oshirish va talabalarning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlash uchun ham muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida mehnat va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish strategik rejalarini ishlab chiqishda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [1]. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:

- Mehnat bozorining zamonaviy talab va takliflariga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish mazmunini belgilash;
- Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni sifatli o'zlashtirish uchun innovatsion pedagogik-psixologik omillarni aniqlash;
- Tizimli yondashuv asosida ijodiy-hamkorlik muhitini yaratish va kasbiy moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini amaliyotga tatbiq etish;
- Bo'lajak o'qituvchilar uchun yangicha nashrlar, elektron darsliklar va o'quv-metodik majmualar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bu jarayonning bosqichlari turlicha tavsiflanadi, ammo umumiy maqsad o'qituvchilarning o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish qobiliyatini oshirishdir. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish jarayonida N. Egamberdievaning moslashuv bosqichlari muhim ahamiyatga ega [2]. Ushbu bosqichlarni quyidagi tarzda qayta ko'rib chiqish mumkin:

1. Muvozanatlashish: Bo'lajak pedagoglar o'zlarining professional faoliyatida yangi muhitga kirganida, individ va muhit o'rtasida o'zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me'yorlariga nisbatan hurmat ko'rinishidagi muvozanatni yaratishlari zarur. Bu jarayon, o'qituvchining o'z kasbiy qadr-qimmatini anglashiga va yangi sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi.

2. Soxta adaptatsiya: Ba'zi hollarda, bo'lajak pedagoglar yangi sharoitga tashqi moslashuvni amalga oshirishi mumkin, lekin bu jarayon ichki qoniqarsizlik va salbiy munosabatlar bilan birga kechishi mumkin. Ushbu holat, pedagogning o'z kasbiga nisbatan ishonchni pasaytirishi va professional rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

3. Ko'nikish: Yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish jarayoni bo'lajak pedagoglar uchun juda muhimdir. Bu bosqichda, o'qituvchilar yangi o'quv jarayonlari, metodologiyalar va pedagogik yondashuvlar bilan tanishib, ularni o'z faoliyatida qo'llashga tayyor bo'lishlari kerak. Ko'nikish, shuningdek, o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini yangilashga yordam beradi.

4. O‘xshatish: Bu bosqichda bo‘lajak pedagoglarning psixik qayta orientatsiyasi sodir bo‘ladi. Ular avvalgi qarashlari va orientatsiyalarini transformatsiya qilib, yangi sharoitlarga mos ravishda o‘z fikrlarini va yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqadilar. O‘xshatish jarayoni pedagogning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, ta‘lim jarayonida ijodiy yondashuvni qo‘llashga yordam beradi.

B. Jo‘raevning bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv bosqichlarini tahlil qilish jarayoni, pedagoglarning professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega [3]. Ushbu bosqichlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Boshlang‘ich davr: Bu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar yangi muhitga kirishadi va o‘zlarini yangi sharoitda qanday tutishlari kerakligini anglashadi. Ushbu davrda o‘qituvchilar yangi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va an‘analarni bilan tanishib, ularni qabul qilish jarayonida bo‘ladi. Bu bosqichda pedagoglar o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki yangi muhitda o‘z o‘rnini topish va o‘zini namoyon etish zarurati tug‘iladi.

2. Ko‘nikish davri: Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar yangi muhitga ko‘nikishni boshlaydilar. Ular o‘z faoliyatida yangi metod va yondashuvlarni qo‘llashga harakat qiladilar. Bu jarayonda pedagoglar o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab, yangi sharoitlarda qanday qilib muvaffaqiyatli bo‘lishni o‘rganadilar. Ko‘nikish davri, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga va guruh ichidagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

3. Akkomadatsiya davri: Bu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv jarayonida ichki o‘zgarishlarga duch keladilar. Ular o‘z qadriyatlari va qarashlarini qayta ko‘rib chiqib, yangi sharoitlarda qanday qilib muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni tushunishga harakat qiladilar. Akkomadatsiya jarayoni o‘z-o‘zini anglash va professional identifikatsiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Assimilyatsiya davri: Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar yangi qadriyatlar va an‘analarni to‘liq qabul qilib, ularni o‘z ichki qadriyatlar tizimiga integratsiya qiladilar. Assimilyatsiya jarayoni natijasida pedagoglar yangi muhitda o‘zlarini qulay his qilishadi va o‘z faoliyatlarini yanada samarali olib borishga qodir bo‘ladilar. Bu bosqichda o‘qituvchilar yangi ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘z rollarini mustahkamlashadi va professional identifikatsiyalarini rivojlantiradilar.

Pedagogik olim V.A. Slastenin bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya‘ni kasbiy etuklikka erishishning ob‘ektiv omillariga olingan ta‘limning sifatini, sub‘ektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas‘uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi [4]. Shuningdek, pedagog olim bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni muvaffaqiyatiga ta‘sir etuvchi omillarni ham ikki turkumga bo‘ladi: sub‘ektiv (ichki) va ob‘ektiv(tashqi) omillar. Muallif bo‘lajak mutaxassisning kasbiy moslashuviga ta‘sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog‘lasa, ob‘ektiv omillarga muhit va ta‘lim shart-sharoiti bilan bog‘liq jihatlarni taklif etadi.

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy moslashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni sub’ektiv va ob’ektiv omillar sifatida tahlil qilish juda muhimdir. Har ikkala omil ham pedagoglarning professional rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishida muhim rol o‘ynaydi.

Sub’ektiv omillar:

1. Ijtimoiy-demografik omillar: – Yoshi: Yosh o‘qituvchilar ko‘pincha yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni qabul qilishga tayyor bo‘lishadi, lekin tajribasizlik ba’zi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

– Jinsi: Jinsiy identifikatsiya va stereotiplar pedagoglarning o‘zaro munosabatlariga va professional rivojlanishlariga ta’sir qilishi mumkin.

– Oilaviy holati: Oila va shaxsiy hayotdagi muammolar kasbiy faoliyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

– Ma’lumot darajasi: Oliy ma’lumotga ega bo‘lgan pedagoglar ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi va professional rivojlanishga tayyor bo‘lishi mumkin.

2. Fiziologik o‘ziga xoslik: Har bir pedagogning jismoniy va ruhiy salomatligi, uning kasbiy faoliyatini qanday olib borishiga ta’sir etadi. Salomatlik muammolari o‘qituvchining ishga qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

3. Emotsional (hissiy) barqarorlik: O‘qituvchining emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va hissiy intellekti ularning ish faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

4. O‘z-o‘zini adolatli baholash: O‘zining kuchli va zaif tomonlarini to‘g‘ri baholay olish qobiliyati pedagogning o‘zini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

5. Shaxs faolligi: Faol shaxslar o‘z maqsadlariga erishishda ko‘proq muvaffaqiyat qozonadilar va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishda yaxshiroq natijalarga erishadilar.

6. Sohaga oid dastlabki kompetentsiyalar: O‘qituvchining avvalgi bilimlari, ko‘nikmalari va tajribasi yangi ijtimoiy-madaniy muhitda moslashishda yordam beradi.

7. Faoliyatga ijtimoiy-kasbiy tayyorgarlik: O‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, uning yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini belgilaydi.

Ob’ektiv omillar:

1. Ta’lim muassasasidagi mavjud shart-sharoit: Ta’lim muassasasining infratuzilmasi, resurslari va pedagogik muhit o‘qituvchining ish faoliyatiga ta’sir qiladi. Yaxshi shart-sharoitlar pedagoglarning samaradorligini oshiradi.

2. Pedagogik jarayonni tashkil etilishi: O‘qituvchining darslarni qanday tashkil etishi, metodik yondashuvlari va ta’lim uslublari kasbiy moslashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega.

3. Vaqt byudjetining to‘g‘ri rejalashtirilishi: Vaqtni samarali boshqarish, o‘qituvchilarning ish faoliyatini rejalashtirishda va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, stressni kamaytirishga va ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Mazkur omillar va pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talablaridan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy moslashuvchanlikni

shakllantirish mazmuni bevosita ulardagi fiziologik, psixologik, ijtimoiy va tashkiliy moslashish bilan belgilanishi ma’lum bo’ladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-nazariy tayyorgarligi motivatsion va ijtimoiy omillar ta’sirida kechib, uning mazmunida umumta’lim fanlari doirasida o‘zlashtiriladigan axborotlar, bilimlar, fan asoslari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
2. Эгамбердиева Ф.О. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси (Чўлпон ижоди мисолида). Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б..
3. Жўраев М. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (ОЎЮда давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. –Тошкент, 2005. 24 б.
4. Слостенин, В. А., Каширин, В. П. Психология и педагогика. М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 480 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛАШТИРИШ МУХИТИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ПРИНЦИПЛАРИ, ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ БЎЙИЧА ЁНДАШУВЛАР <i>Инамова Гуллола</i>	300
TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI <i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	309
“TIBBIY TA’LIM TALABALARINI INTENSIVLIK ASOSIDA MUTAXASSISLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ” <i>Mirzaqandov E.E</i>	315
TEXNIKA TA’LIM MUASSASALARIDA ONLAYN VA GIBRID TA’LIM JARAYONINING XUSUSIYATLARI VA IMKONIYATLARI <i>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</i>	320
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH <i>O.E. Mamarajabov</i>	325
INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>G‘iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi</i>	329
GERMANIYA VA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMINING XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI <i>Astonova Go‘zalxon Raxmonaliyevna, Karbozova Gulnara Kusimbekovna</i>	334
ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALAR VA ULARNING OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI <i>Ziyoyeva Irodaxon Umidjon qizi</i>	338
3-SINF “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDAGI MATNLARIDAGI O‘ZLASHMA QATLAM SO‘ZLARINI O‘RGATISH METODIKASI <i>Hamrayev Ilg‘or Aktamovich, Abdurahmonova Nargiza Abduvahhob qizi, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	344
BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Sultanov Turdali Muxtaraliyevich</i>	348
MIGRANT TALABALARNING IJTIMOIIY FAOLLAGI VA TASHABBUSKORLIGI ASOSIDA MA‘NAVIYAXLOQIIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH <i>Saydaliyeva Lazzat Muxtarali qizi</i>	354
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOBILLAGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI <i>Sultanova A.M.</i>	359
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FAZOVIIY FIGURALAR TUSHUNCHASI <i>Musurmonova M.</i>	364
TALABALARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TASHKIL ETISHNING KUNNING DOLZARM MASALASIDIR <i>Mamadaliyev K.R.</i>	369
TA’LIM TIZIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TASHKIL ETISH <i>Mamadaliyev K.R., Axmedov B.A.</i>	376
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TARBIYAVIIY DARSLARNI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH <i>Akmalova Nafosat Muminovna</i>	384